



AUTIZM SINDIROMLI BOLALAR.

Andijon Davlat Pedagogika Inisituti
"Logopedya" yo'nalishi 1-bosqich 102-guruh talabasi
Xudoyberdiyeva Muhayyo Alisher qizi
Ilmiy Rahbar: assisent o'qituvchisi
Ahmedova Vaziraxon Tursunboyevna

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15233662>

Annotatsiya: Ushbu tezida autizm sindiromiga yo'liqqan bolalar haqida ma'lumot berib o'taman. Bu kasallikning kelib chiqish sabablari va ishlab chiqilgan davo choralari haqida bilimlarga ega bo'lasiz.

Kalit so'zlar: Autizm (grekcha «autos» – «o'zim» degan so'z) – bu ruhiyatning o'ziga xos holati bo'lib, bemor tashqi olam, atrofdagilar bilan muloqot qilishni istamaydi.

Ushbu kasallikning dolzarbligi Butunjaxon Sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan 2001 yildan alohida ajratib ko'rsatilib, shu yilning o'zida „Psixik salomatlik yili“

Deb e'lon qilingan. 2008 yili Birlashgan millatlar tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 2 aprel Xalqaro autizm muammosi to'g'risida axborotlarni tarqatish kuni deb e'lon qilinib, shundan buyon har yili nishonlanib kelinadi.

[2 6 sahifa]

Olimlarning fikricha, autizm kasalligini kelib chiqish sabablaridan biri bu – homilani ona qornidalik davrida ma'lum bir turdagi oqsillarning yetishmovchiligi. Ikkinchi sababi, organizmda ikki xil og'ir metalning, qo'rg'oshin va simobni, ko'payib ketishi. Uchinchi sabab atrof muhitni ekologik buzilishi va homiladorlik paytida kuchli stress holatlarini kechirish. Anemiya hamda qon bosimning oshishi, buyrakda bosim oshishi – bularning hammasi autizmni kelib chiqish sabablari hisoblanadi. Bundan tashqari autizm kasalligi belgilarining kengayishini, ya'ni rivojlanishdan ortda qolish belgilari Retta sindromi, Aspergera sindromi va autizmning klassik simptom komplekslarining ko'p uchrashi. Shuningdek, kasallik haqida ma'lumot ko'paymoqda. Ilgari tortinchoq, uyatchan, introvert va shizofreniyaga moyil bolalarni «g'ayritabiiy bolalar» deyishgan bo'lsa, hozirgi kaunga kelib bunday bolalarni autistik bolalar (autizm) deyishmoqda.

Autizmspektiri buzilishi (ASB)-bu rivojlanishning murakkab buzilishi bo'lib, muloqot qilish, ijtimoiy o'zaro munosabat va xatti-harakatlarda o'ziga hos qiyinchiliklar bilan tavsiflanadi. Bu sindirom odatda 3 yoshga qadar aniqlanadi va insonning hayoti davomida saqlanib qoladi.

Maxsus adabiyotlarda autizm sindiromiga ega bo'lgan bolalarning nuqsonlari va qo'pol buzilishlariga qaramasdan, ularning normal tengdoshlariga nisbatan qiyoslanganda ancha kech rivojlanishi kuzatiladi. Autizmga ega bo'lgan bolalar

Ota-onalarni ko'pincha farzandlaridagi muloqotdan qochish, hatto yaqin odamlari bilan aloqani chegaralash, boshqa bolalar bilan o'ynay olmaslik, tevarak-atrofga faol qiziqishining yo'qligi, hulqning stereotipligi (bir tarz daligi), qo'rquvlar, tajovuzkorlik, o'z-o'ziga tajovuz kabilar cho'chitadi. Autik bolalarda, shuningdek, yoshi kattalashishi bilan nulqning va intellektning rivojlanishini orqada qolishi, ta'limdagi qiyinchiliklar ham kuzatilishi mumkin. Maishiy va ijtimoiy malakalarni o'zlashtirishda ham o'ziga xosliklar namoyon bo'ladi. Autizimli bolalarda o'z-o'ziga xizmat qilishda yetarlicha muammolar yuzaga keladi. o'z-o'ziga xizmat qilish ko'nikmalarini rivojlanishi autik bolalarda alohida muammo hisoblanadi. Hattoki eng chaqqon bolalar, alohida is'tedod qobiliyatiga ega bo'lganlari ham hayotiy holat va maishiylikka moslashmagan bo'ladi. Ularda ham o'z-o'ziga xizmat qilish sekin shakllanadi hamda sifatli rivojlanmaydi.

Autizimli bolalarning intellektual rivojlanish imkoniyatlari

turlichadir: intellektual jarayonlarni aqli zaifligidan to'psixik rivojlanishni yengil orqada qolishi hamda qaysidir iste'dod qobiliyatining o'ziga xos ko'rinishini rivojlanishidir.



Autik bolalam ing hulqidagi stereotipiik hayotdagi doimiy, odat bo'lib qolgan sharoitni saqlashga bolgan kuchli intilish bilan bog'liq bo'lib sharoildagi, hayot tarzidagi ozginagina o'zgarishga qarshilik, ulardan qo'rqish; bir xil tarzidagi harakatlarga berilganlik, masalan, bir m arom da tebranish, qoini silkitish, sakrash, biror tovushni, so'zni jum lani doimo takrorlash, malum bir buyumlarga o'rganib qolish, ular bilan doimo bir xil tarzidagi manipulyatsiya qilish: silkitish, taqillatish, yirtish, aylantirish; bir xil tarzidagi, stereotip qiziqishlarga berilganlik: faqat malum bir o'yinni doimo o'ynash yoki rasmni doimo bir mavzuda chizish va hokazolarda namoyon bo'ladi.

Ammo bunday bola ko'p narsani o'zi tushuna olsa-da, uning diqqatini tortish, biror narsaga o'rgatish juda mushkul boiadi. Uni iinch qo'yilganda bola sokin boladi, lekin ko'pincha o'nga qaratilgan topshiriqlami bajarmaydi. hatto o'zining ismi aytilganda ham javob bermaydi, o'ziga tortish qiyin bo'ladi. Uni qanchalik **“silkitilsa”**, qanchalik u bilan shug'ullanishga harakat qilinmasin, uni qavta-qayta gapira oladimi, haqiqatan ham fikrlay oladimi (vaqti- vaqti bilan namoyon bo'ladigan) deb ko'p marotalab tekshirilganda bola aloqadan bosh tortadi, uning g'alati stereotip harakatlari yanada ko'payadi o'ziga tajovuzkorlik ortadi. Nima uchun autik bolaning barcha qobiliyatlari faqatgina tasodifan namoyon bo'ladi? Nima uchun autik bola o'z qobiliyatlaridan real hayotda foydalanishni istamaydi? Ota-onalar uni tinchlantira olmasalar, uni qo'rquvdan himoya qilishga qodir bolm asalar, bola mehribonlik va yordamni qabul qilinsa, unga qanday va qay tarzda yordam berish kerak? Bolaning hayotini tashkil qilish, uni biror narsaga o'rgatish harakatlari mavjud boigan ozgina aloqa qilish shakllarini buzib kattalami va bolaning jahlini chiqarsa nima qilish kerak? Autik bolalaming ota-onalari, tarbiyachilar va o'qituvchilari ana shunday masalalarga, albatta, duch keladilar.

Autik bolaning muammolarini ko'rib chiqishda shu xulosaga kelish mumkin-ki, uning reabilitatsiyasida asos - bolaning butun hayotini davolashni tashkil etishdir. Bunda asosiy ish uning yaqinlariga ~ oilasi yoki uning o'rnini bosuvchilarga yuklanadi, ularga esa mutaxassislar Davolash maqsadida ortda qolayotgan jihatlarni korreksiya qilish uchun barcha turdagi autist bolalarga mos keladigan quyidagi chora tadbirlar qo'llash mumkin:

[4 Electron manbaa]

- Gapirish qobiliyatini yaxshilash maqsadida logoped bilan mashg'ulotlar olib borish;
- So'zlashish uchun rasmi kartochkalardan foydalanish yoki planshet, kompyuterda so'zlarni yozib o'rgatish;
- Bola bilan har xil o'yinlar o'ynash, bir sferada faqat bir mutaxassis bilan ishlaydi.
- Medikamento davolash faqatgina qo'shimcha sifatida bolada kuchli agressiya bo'lsagina buyuriladi. jamoasi yordam berishi lozim.

Ushbu mavzuni o'rganish autizmning asosiy sabalari, uning tarixiy rivoji va diagnostika usullarini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Mazkur holatga oid tadqiqotlar davom etmoqda va u inson rivojlanishi hamda miya faoliyatining nozik

Jihatlarini ochib berishda muhim ahamyat kasb etadi.

Aqliy zaiflik va autizm mutlaqo alohida-alohida tushunchalar bo'lib, autist kishi intellektual jihatdan normatipik kishiga qaraganda ustunroq bo'lishi yoki aksincha autistik bo'lmagan kishilarda aqliy jihatdan orqada qolish kuzatilishi mumkin. Shuningdek, autistik shaxslar odatda normatipik shaxslardan tashqi ko'rinishi jihatdan ajralib turmaydi. Autizm haqida ma'lumotga egalik bo'yicha so'rovlarimiz odamlar orasida autistik shaxslarning yuz qiyofasi o'zgacha bo'ladi degan qarashlar borligini ko'rsatdi. Katta ehtimol bilan, bu holatda autizm Daun sindromi bilan adashtiriladi.

Autizm ikki turga bo'linadi: yuqori funksiyali autizm va past funksiyali autizm. Yuqori funksiyali autizm bilan yashaydigan odamlar odatdagi hayotda siz-u bizning oramizda yashay oladilar. Ular takrorlanuvchi harakatlar, muloqotga kirishishdagi qiyinchiliklar, odamlar bilan aloqaga kirishishdan ko'ra ma'lum turdagi yumushni yoqtirish kabi o'ziga xosliklarni namoyon qilishlari mumkin. Past funksiyali autizm esa ko'pincha yondosh sog'lik muammolari bilan kelib



(aqliy rivojlanishning ortda qolishi, ba'zan hatto harakatlanish bilan bog'liq muammolar), ko'pincha doimiy parvarish va ko'makni talab qiladi.

[18 sahifa]

Autizmni u bilan yondosh kelishi mumkin bo'lgan tibbiy holatlar bilan adashtirib yubormaslik muhim. Va unutmazlik kerakki, autizm insonga umr davomida hamroh bo'ladi. Maxsus terapiyalar yordamida odatiy hayotda yashashga xalaqit beruvchi jihatlarni korreksiya qilish mumkin, biroq autizm davolanmaydi. Chunki, yuqorida aytilganidek, u kasallik emas.

Autizm — qanday, qayerda va qachon?

Autizm juda keng va hamon o'rganilayotgan mavzu. Bugun AQShda har 36 boladan biri autizm tashxisini olyapti. G'arb tajribasiga shubha bilan qaraydiganlar kishilar buni AQShda ovqatlanish, atrof-muhit, mentalitet «muammolari» bilan bog'lashga harakat qilsa-da, ilmiy manbalar buni rivojlangan mamlakatlardagi diagnostikaning rivojlanganligi bilan asoslaydi. Ya'ni ilgari ko'z yumilgan holatlar bugun yaxshiroq tadqiq qilinmoqda. Afsuski, bizda emas.

Autizmning ilk belgilari go'dakning 12-14 oyligidayoq namoyon bo'ladi. Rivojlangan mamlakatlardagi diagnostik yutuqlardan farqli o'laroq O'zbekiston tibbiyoti bolaga 3 yoshigacha autizm diagnozini qo'ymaydi va odatda autizm bilan birga aqliy rivojlanish ortda qolishi ham kuzatilgan bolalargina diagnoz olishga «muvaffaq bo'lishadi».

Biz bilan suhbatlashishga rozilik berga onalar, ayrim med-personallar buni diagnoz olingan taqdirda davlat tomonidan ko'rsatilishi kerak bo'lgan majburiy yordam bilan bog'laydilar. O'zbekistonda yuqori funksiyali autizm ko'pincha autizmning simptomlari qatorida bo'lgan nutqiy rivojlanishni ortda qolishi, psixo-nutqiy rivojlanishning ortda qolishi kabi diagnozlar bilan almashtiriladi. Bu esa ota-onaning salbiy ma'noda tinchlanishiga, hotirjamlashishiga sabab bo'ladi.

Autizmning ilk belgilarini ertaroq payqash yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarning oldini olishda juda muhim. Chunki to'g'ri parvarish qilingan autistik bola kelajakda kutilganidan yaxshiroq natijalar ko'rsatishi mumkin. Xo'sh, autizmning ilk belgilarini qanday farqlab olsa bo'ladi? Autistik kichkintoylar boshqa bolalardan qanday jihat(lar)i bilan farq qiladi?

Quyida autizmning eng keng tarqalgan simptomlarini sanab o'tamiz:

Bola odatda ismiga e'tibor bermaydi;

Yolg'iz o'ynashni yoqtiradi;

Ko'zga qarashdan qochadi;

12-14 oylik davrda ham oddiy murojaat nutqi (kel, ol, ber, qo'y kabi so'zlar, ishoralar)ni tushunmaydi;

Nimanidir istaganda ko'rsatkich barmog'ini ishlatmaydi;

Aylanuvchi jismlar, masalan, mashina baloniga boshqa o'yinchoqlardan ko'proq qiziqadi;

Til imkoniyatlari jihatdan ortda qola boshlaydi;

Boshini devorga, yerga yoki qo'li bilan uradi.

Yuqorida sanab o'tilgan belgilarning hammasi ham va doim ham kuzatilmaydi. Lekin ota-ona tomonidan ularning bittasi payqalgan taqdirda ham, bu shifokor qabuliga borish uchun asos bo'la oladi. O'zbek ota-onalari orasida 2-3 yoshda ham biror so'z ayta olmaydigan bolaga nisbatan befarqlik kuzatiladi, kattalar tomonidan «bobosi ham 5 yoshida gapirgan», «hamma bola har xil bo'ladi», «o'zi ko'p multfilm ko'radi», «yolg'iz katta bo'lyapti, shunga kamgap, unga uka obkelish kerak», «onasi yaxshi qaramaydi, telefonga yopishib qolgan» kabi bahonalar tez-tez ishlatiladi. Va, afsuski, yo'qotilgan vaqt ko'p hollarda bolaning zarariga ishlaydi.

Ya'ni autizmning ilk belgilarini imkon qadar erta payqash va zaruriy chora tadbirlarni ko'rish bolaning kelajagi uchun muhimdir. Bu chora tadbirlar qatorida odatda gadgetlarni cheklash, bola bilan ko'proq va aniqroq tilda gaplashish kabilar bo'ladi. To'g'ri, hamma bola har xil, hamma



bolaning tili har xil yoshda «chiqadi», biroq xarakterli jihati shundaki, normatipik bola bu yoshda gapirmasa ham, siz gapirayotgan gapni yaxshi tushunadi va hech bo‘lmaganda imo-ishoralar, mimik harakatlar bilan muloqotga kirishadi.

Autistik bolalarning o‘ziga xosligi ham aynan nutqni tushunish muammolari bilan bog‘liq bo‘lib, u siz nima deyotganligingizni anglay olmaydi, shu sababli ham gapirmaydi, muloqotga kirishmaydi. Bu muloqot uzilishi ortidan autistik bolalarda normatipik bolalardagiga qaraganda ko‘proq asabiylik, agressiya va norozilik kuzatilishi mumkin.

Alohida ta’kidlash muhimki, ko‘p hollarda farzandidagi o‘zgarishlarni sezgan ota-onalar ham yo hammasini vaqt izmiga topshirib, befarqlikni tanlashadi yoki bo‘lmasam, jamiyatdan uyalgan holda farzandidagi o‘ziga xoslikni hammadan yashirishga intilishadi, bolani uyda saqlashadi.

O‘zbekistonda autizm reabilitatsiyasi bilan bog‘liq juda ko‘plab muammolar bor, terapevt kadrlarning yetishmasligi, tashxis va korreksiya metodlarining eskirganligi, ixtisoslashtirilgan muassasalarning kamligi shular jumlasidandir. Ammo bu muammolar haqida yozishdan oldin, eng avvalo, e’tiborni ota-onalarning, umuman, jamoatchilikning autizm bilan bog‘liq qarashlariga qaratishga qaror qildik. Chunki, alal-oqibat, hamma mas’uliyat ota-onaning bo‘ynida qoladi.

Xulosa

Intellectual jihatdan tengdoshlaridan ancha oldinda bo‘lgan, biroq kommunikativ muammolarga ega autistik farzandni katta qilayotgan ona bilan suhbatda uning bir so‘zlari e’tiborimizni tortdi: «Atrofga qarang, autist bo‘lmagan odamlar bor, bugun ular qora ishchi, ishsiz yoki boshqa qandaydir statusda. Va autist odamlar bor, bugun ular olim, aktyor, ijodkor, millioner. Kishining muvaffaqiyatga erishishiga uning autizmi to‘sqinlik qila olmaydi. Autistlar bugun siz-u bizning oramizda. Ularni tushunish, to‘g‘ri qabul qilish va bunday bolalarga erta davrda biroz yordam berib yuborish kerak xolos». Haqiqatan ham, bugun dunyo bo‘ylab bir qancha mashhurlikka erishga kishilar o‘zlarining autistik shaxs ekanliklarini e’tirof etganlar.

Jamiyatimizda autizm bilan bog‘liq qo‘rqinchli narrativlar yashagani holda aslida autizm qo‘rqinchli tushuncha emas, autizm xavfli emas, autizm hukm emas va autistlar bugun siz va bizning oramizda yashaydi. Biz yetarli bilimga ega emasligimiz ortidan ularni odamovi, introvert yoki boshqa qandaydir nomlar bilan atarmiz balki.

So‘rovlarimiz natijasida ko‘pgina ota-onalarning autizmning ilk belgilari haqida tushunchaga egaligi, hatto dunyo bo‘ylab mashhur autistik shaxslarni tanishi aniq bo‘ldi va bu kishini quvontiradi. Ularning ayrimlari autizmi tuhfa deb qabul qilishlarini bildiradilar. Bu tuhfa kimga nasib etishini XXI asrda hech bir olim, shifokor va texnologiya aniqlab berolmaydigan bir paytda farzandi bilan bog‘liq o‘zgarish va noodatiyliklarni anglash, payqash va tegishli chora ko‘rish, u xoh autizm bilan, xoh boshqa tushuncha bilan aloqador bo‘lsin, har bir ota-onaning burchidir.

[3]

Foydalanilgan adabiyotlar;

- 1 D.R Madazizova “Bolalar Rivojlanishidagi nuqsonlarining klinik asoslari”
- 2 L. R Mo‘minova “Autizm sindiromi. Uning sabablari.Turlari va bartaraf etish metodikasi.”Toshkent 2015
- 3 Dilbar Elamanova Kasallik tahlilidan
- 4 Elektron manbaa.